

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI**

**JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI
SHAROF RASHIDOV TUMANI STATISTIKA BO‘LIMI**

**SHAROF RASHIDOV TUMANINING
IJTIMOIY-IQTISODIY HOLATI
AXBOROTNOMASI**

**2026- yil
YANVAR–MART**

Sharof Rashidov–2026-y.


Qisqartma va shartli belgilar

%	- foiz	0,0	- katta bo'lmagan miqdor
mlrd	- milliard	m.	- marta
mln	- million	-	- ko'rsatkichning yo'qligi
mln AQSH doll.	- million AQSH dollari	ga	- gektar
kv.	- kvadrat	tn	- tonna
km	- kilometr	yo'lovchi/km	- yo'lovchi-kilometr
m	- metr	1), 2), 3).....	- izohning mavjudligi

MUNDARIJA

Nomi	bet.
SHAROF RASHIDOV TUMANINING XARITASI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI	4-5
I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOYIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI	6-8
II. SANOAT	9-11
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	12-17
IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH	18-22
V. XIZMATLAR	23-26
VI. ISTE'MOL BOZORI	27-30
VII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	31-35
VIII. KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI	36-37
IX. MOLIYAVIY FAOLIYAT	38-39
X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	40-45
XI. DEMOGRAFIK HOLAT	46-49
XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	50-53

Jizzax viloyati
Sharof Rashidov tumanining
XARITASI



**Sharof Rashidov tumani to'g'risida
umumiy ma'lumotlar**

Viloyat	Jizzax
Tuman	Sharof Rashidov
Markazi	Uch tepa shaharchasi
Tashkil topgan vaqti	09.01.1967 y.
Umumiy maydoni, <i>ming km²</i>	1,32
Mahalla fuqarolari yig'inlari soni	48
Aholi punktlari	39
2026- yil 1-apral holatidagi doimiy aholi soni, <i>ming kishi</i>	
Jami	256,7
Erkaklar	130,1
Ayollar	126,6
Chegaradosh tumanlar	Forish, Zafarobod, Paxtakor, Zarbdor, Zomin, Baxmal, G'allaorol, Jizzax shahri
Viloyat markazigacha bo'lgan masofa, <i>km</i>	15

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY- IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2026- yilning yanvar-mart oylarida)


	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd so'm	2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	ming so'm	2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Sanoat	285,5	104,3	1 115,5	101,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	697,9	173,3	2 727,3	168,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	458,5	101,1	1 791,6	98,6
Qurilish ishlari	194,0	117,4	758,1	114,6
Chakana tovar aylanmasi	389,9	133,4	1 523,5	130,2
Bozor xizmatlari	517,1	118,2	2 020,6	115,3

	Jami		Aholi jon boshiga	
	mln AQSH doll.	2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	AQSH doll.	2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	8,8	76,3	34,7	74,5
Eksport	0,6	20,8	2,5	20,0
Import	8,2	96,7	32,2	94,4

**Sharof Rashidov tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini
Jizzax viloyati bilan solishtirma jadvali
(yanvar-mart)**

	Jizzax viloyati		Sharof Rashidov tumani		Sharof Rashidov tumanining viloyatdagi ulushi, % da	
	2026- yil mlrd so'm	2025- yilga nisbatan, % da	2026- yil mlrd so'm	2025- yilga nisbatan, % da	2025- yil	2026- yil
Sanoat mahsuloti	9 132,4	107,8	285,5	104,3	3,6	3,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 452,5	104,2	458,5	101,1	10,7	10,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5 772,7	111,8	697,9	173,3	7,8	12,1
Qurilish ishlari	1 733,6	119,4	194,0	117,4	11,4	11,2
Chakana savdo tovar aylanmasi	3 511,3	131,5	389,9	133,4	10,9	11,1
Xizmatlar, jami	6 750,8	116,6	517,1	118,2	7,6	7,7
Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH doll.)	392,7	107,0	8,8	76,3	3,2	2,3
Eksport (mln AQSH doll.)	51,0	117,7	0,6	20,8	7,2	1,4
Import (mln AQSH doll.)	341,7	105,5	8,2	96,7	2,6	2,4

**Sharof Rashidov tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida
kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi
(2026- yil yanvar-mart, % da)**




II. SANOAT

Tumanda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birkikda)

	2025- yil 1-apral holatiga	2026- yil 1-apral holatiga
Sanoat korxonolari, jami	381	418
- yirik korxonalar	3	3
- kichik korxonalar va mikrofirmalar	378	415
- shu jumladan: xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	11	14


Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2026- yilning yanvar-mart oylarida Sharof Rashidov tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari tomonidan 285,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsuloti hajmi va fizik hajm indeksi (yanvar-mart)



2026- yil yanvar-mart oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 115,5 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari dinamikasi**
(yanvar-mart oylari, ming so‘m)



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi
(2026- yil yanvar-mart oylari)

	Sanoat mahsuloti hajmi		tarmoq korxonalari		hududiy korxonalar	
	mlrd so‘m	o‘sish sur‘ati, % da	mlrd so‘m	jami hajimga nisbatan ulushi, % da	mlrd so‘m	jami hajimga nisbatan ulushi, % da
Jizzax viloyati	9 132,4	107,8	2 897,4	31,7	5 721,0	62,6
Sharof Rashidov tumani	285,5	104,3	86,1	30,1	199,4	69,9

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 274,3 mlrd soʻmni tashkil etib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,1 % ni tashkil etdi.



■ Yirik tashkilotlar ulushi ■ Kichik biznes ulushi

STATISTIK KOʻRSATKICHLARGA IZOHLAR

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga moʻljallangan, oʻzining nosanoat boʻlinmalariga va kapital qurilishga moʻljallangan mahsulotlar hajmini oʻz ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish boʻyicha ishlar; sanoat tushidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda oʻzgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir; Isteʼmol mollari – asosan shaxsiy isteʼmol yoki foyda olish bilan bogʻliq boʻlmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; isteʼmol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura koʻrinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalariga joʻnatish uchun yoki ishlab chiqarishga moʻljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni oʻz ichiga oladi, yaʼni yalpi mahsulot;

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yokikomponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlabchiqarishning maʼlum turi uchun birdan-bir toʻliq meʼzon hisoblanmasa ham, oʻz ichiga oladi.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bugʻni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bogʻliq faoliyatni oʻz ichiga oladi.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yigʻish, qayta ishlash va yoʻqotish) ni oʻz ichiga oladi.


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 458,5 mlrd so‘mni yoki 2025- yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 445,6 mlrd so‘mni (101,9 %), o‘rmon xo‘jaligi 12,9 mlrd so‘mni (109,4 %) tashkil qildi. Viloyat qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida tuman ulushi 10,3 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘shish sur‘atlari (2026- yilning yanvar-mart)

	Mrld so‘m	O‘shish sura‘ti, % da
Jizzax viloyati	4 452,5	104,2
Sharof Rashidov tumani	458,5	101,1

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (2026- yilning yanvar-mart, % da)



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishlok xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 92,8 % ni dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,6 % ni fermer xo'jaliklariga, 2,6 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

DEHQONCHILIK



2026- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 17,1 mlrd so'mni yoki 2025- yilning shu davriga nisbatan 121,2 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 3,9 % ni tashkil qildi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (2026- yilning yanvar-mart, dastlabki hisoblash)

	Jami		shu jumladan					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, % da	tonna	o'sish sur'ati, % da	tonna	o'sish sur'ati, % da	tonna	o'sish sur'ati, % da
Sabzavotlar	384,9	94,1	0,0	0,0	69,6	45,8	315,3	122,7

CHORVACHILIK



2026- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 418,3 mlrd soʻmni yoki 2025- yilning shu davriga nisbatan 100,2 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy ulushi 96,1 % ni tashkil etdi.

Xoʻjaliklar toifalari boʻyicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish (2026- yilning yanvar-mart, dastlabki xisoblash)


	Jami		shu jumladan					
			Fermar xoʻjaliklari		Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari		Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	oʻsish surʻati, % da	miqdori	oʻsish surʻati, % da	miqdori	oʻsish surʻati, % da	miqdori	oʻsish surʻati, % da
Goʻsht tirik vaznda, tonna	4 381,2	100,3	110,9	55,7	4 257,6	103,7	12,8	20,0
Sut, tonna	12 807,8	101,7	374,7	47,9	12 416,3	105,4	16,8	51,9
Tuxum, ming dona	1 147,5	31,7	154,2	34,0	993,3	33,7	0,0	0,0

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni
(2026- yil 1-apral holatiga)

	Jami		shu jumladan					
			Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh	o‘shish sur‘ati, % da	bosh	o‘shish sur‘ati, % da	bosh	o‘shish sur‘ati, % da	bosh	o‘shish sur‘ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	42 397,0	47,9	5 764	55,6	35 750	46,9	883	49,1
<i>shu jumladan: sigirlar</i>	11 782	46,3	1 665	56,4	9 782	43,9	335	148,2
Qo‘ylar va echkilar	94 156	51,0	27 617	53,8	50 373	44,7	16 166	79,0
Parrandalar	140 679	27,8	40 937	39,4	59 617	43,7	40 125	15,1

Umumiy bosh songa nisbatan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 84,3 % ni, fermer xo‘jaliklarida 13,6 % ni, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 2,1 % ni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 83,1 % ni, qo‘y va echkilar 53,5 % ni, parrandalar 42,4 % ni tashkil qildi.

Xo‘jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi
(% da)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi. Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.


IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2026- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga 697,9 mlrd soʻmlik investitsiyalar oʻzlashtirilib, oʻsish surʼati 2025- yilning mos davriga nisbatan 173,3 % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2025- yilning mos davriga nisbatan 93,6 % yoki 9,5 mlrd soʻm (jami investitsiyalar hajmining 1,4 %) oʻzlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 688,4 mlrd soʻm yoki 2025- yilning yanvar-martiga nisbatan 175,1 % ni tashkil etdi.

2026- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 697,9 mlrd soʻmni tashkil etgan. Shuningdek, moliyalashtirish manbalari boʻyicha 9,5 mlrd soʻm markazlashgan investitsiyalar va 688,4 mlrd soʻm markazlashmagan investitsiyalar hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Sharof Rashidov tumanida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (2026- yil yanvar-mart oylari, mlrd soʻm)



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**
(2026- yil yanvar-mart oylari)


	Mrld so'm	O'sish sur'ati, % da	Hajmga nisbatan ulushi, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	697,9	173,3	12,1
Markazlashgan investitsiyalar:	9,5	93,6	1,4
byudjet mablag'idan	9,5	98,6	1,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar:	688,4	175,1	98,6
Korxonalar o'z mablag'lari	64,3	184,6	9,2
aholi mablag'lari	34,1	91,0	4,9
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	585,3	183,5	83,9
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4,7	175,0	0,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi
(2026- yil yanvar-mart oylari)

	O'lchov birligi	Jami	Shu jumladan:		
			Qurilish montaj ishlari	Asbob-uskunalar va jihozlar	Boshqa kapital ishlar va sarflar
Jizzax viloyati	<i>mlrd so'm</i>	5 772,7	1 506,7	4 050,7	215,3
<i>Jamidagi ulushi</i>	<i>% da</i>	<i>100,0</i>	<i>26,1</i>	<i>70,2</i>	<i>3,7</i>
Sharof Rashidov tumani	<i>mlrd so'm</i>	697,9	201,8	476,1	20,0
<i>Jamidagi ulushi</i>	<i>% da</i>	<i>12,1</i>	<i>3,5</i>	<i>8,2</i>	<i>0,3</i>

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida tumanning ulushi

(2026- yil yanvar-mart oylari, % da)



Qurilish ishlari faoliyati


2026- yilning yanvar-mart oylarida Sharof Rashidov tumanida jami 194,0 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2025- yilning shu davrga nisbatan 117,4 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari tarkibi ulushi

(2026- yil yanvar-mart, % da)

Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar ulushi.



Qurilish ishlari tarkibi, hajmi
(2026- yil yanvar-mart oylari, mlrd so‘m)

	Jami qurilish ishlari hajmi	shu jumladan		
		Yirik korxonalar	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Jizzaxviloyati	1 733,6	284,5	970,5	478,6
Sharof Rashidov tumani	194,0	38,8	127,9	27,2

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar - bu, real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga - barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – bu, korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxonaga aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Reinvestitsiya - investitsiyalar bo‘yicha daromadlar ko‘rinishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Davlat mulkchiligi - mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalarini o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalardan iborat bo‘lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish xarajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida mahsus amortizatsiya fondida jamg‘ariladi.

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar majmui.

Kapital - sarmoya, keng ma’nodan o‘z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo‘lgan jami vositalar va mablag‘lar; yangi qiymat keltiruvchi, o‘zini-o‘zi ko‘paytiruvchi qiymat.

Moliyaviy investitsiyalar - mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar orqali qo‘yilmalar kiritish.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini vafarovonligini yaxshilash imkonini beradi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida tumanda jami 517,1 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining toifalari (1-apral holatiga, birlikda)

	2025- yil	2026- yil
Jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni	1 505	1 759
- yirik korxonalar	219	250
- kichik korxonalar va mikrofirmalar	1 286	1 509
- <i>shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar</i>	6	5

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni (yanvar-mart, birlikda)

	2025- yil	2026- yil
Jami xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni	68	117
- yirik korxonalar	1	2
- kichik korxonalar va mikrofirmalar	67	115
- <i>shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar</i>	-	-

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi
(yanvar-mart oylari)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	2026- yil mlrd so'm	2025- yil yanvar- martga nisbatan, % da	Jami xizmatlar hajmiga nisbatan, % da	2026- yil mlrd so'm	2025- yil yanvar- martga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	5 930,6	116,6	100,0	4 299,6	114,6
Sharof Rashidov tumani	517,1	118,2	7,7	2 020,6	115,3


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlari ishlab chiqarishi**
(2026- yil yanvar-mart oylari)

	Mrld so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Xizmatlar – jami	517,1	118,2	100,0
<i>shu jumladan, asosiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	27,5	102,7	5,3
moliyaviy xizmatlar	54,7	141,3	10,6
transport xizmatlari	178,7	111,9	34,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	20,8	111,2	4,0
savdo xizmatlari	137,5	126,1	26,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	6,0	100,5	1,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	12,7	136,2	2,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,8	111,8	0,5
ijara xizmatlari	14,3	107,3	2,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	12,3	106,6	2,4
shaxsiy xizmatlar	18,2	108,6	3,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	5,2	105,3	1,0
boshqa xizmatlar	26,5	116,1	5,1

Sharof Rashidov tumani bo'yicha yuqori ulush transport xizmatlari (34,6 %), savdo xizmatlari (26,6 %) va moliyaviy xizmatlar (10,6 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,5 %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,0 %)da qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari va takibi (2026- yil yanvar-mart oylari, % da)



Sharof Rashidov tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlari (141,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (136,2 %) savdo xizmatlari (126,1 %) boshqa xizmatlar (116,1 %)da qayd etildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari yuqori bo'lmagan sohalar ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,5 %), da qayd etildi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Xizmat sohasi – bu, korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog‘idir. Xizmatlar iste‘molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Xizmatning o‘ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste‘mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarida sotilganda, bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar hisoblanadi.

“Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi – ma‘lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi, iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi – bu, xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste‘molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko‘rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

Ijara xizmatlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlarining qiymatini o‘z ichiga oladi.

VI. ISTE'MOL BOZORI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2026- yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 532 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

2026- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 389,9 mlrd so'mni yoki 2025- yilning shu davriga nisbatan 133,4 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida 4,4 mlrd so'mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 1,1 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 75,5 mlrd so'mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 19,4 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 310,0 mlrd so'mi savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 79,5 % ga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

(2026- yilning yanvar-mart oylari, % da)



Chakana savdo tovar aylanmasi

(2026- yil yanvar-mart oylari)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	2026-yil, ming so'm	2025- yilga nisbatan, %	2026-yil, ming so'm	2025- yilga nisbatan, %
Jizzax viloyati	3 511,3	131,5	2 236,3	129,0
Sharof Rashidov tumani	389,9	133,4	1 523,5	130,2

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2026- yil yanvar-mart oylari)

	2026–yil, mlrd so‘m	2025- yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da
Jami	389,9	133,4	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Yirik korxonalar	4,4	273,1	1,1
Kichik tadbirkorlik korxonalari	75,5	136,2	19,4
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	157,1	117,5	40,3
Uyushmagan savdo tovar aylanmasi	152,9	150,7	39,2

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(2026- yil yanvar-mart oylari)

	Chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd so‘m	chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %	aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi, ming so‘m	Ulgurji savdo tovar aylanmasi mlrd so‘m
Jizzax viloyati	3 511,3	131,5	2 236,3	1 043,3
Sharof Rashidov tumani	389,9	133,4	1 523,5	95,1

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochnalari, kredit kartochnalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

VII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


Tumanning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholi turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2026- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan tumanning tashqi savdo aylanmasi 8,8 mln AQSH dollari tashkil etgan bo'lib, shundan eksport 0,6 mln AQSH dollari, import 8,2 mln AQSH dollari tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi tahlili (2026- yilning yanvar-mart, mln AQSH doll.)

	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
		Hajmi	
Jizzax viloyati	392,7	51,0	341,7
Sharof Rashidov tumani	8,8	0,6	8,2
Tuman o'sish sur'ati, % da	76,3	20,8	96,7

Tumanning eksport-import dinamikasi (2026- yilning yanvar-mart, mln AQSH doll.)




Sharof Rashidov tumanining eksport tarkibidagi tovar va xizmatlar hajmi

(2026- yil yanvar-mart)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami eksport	649,3	20,8
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	649,3	22,2

Sharof Rashidov tumanining eksport tarkibidagi tovar va xizmatlar ulushi

(2026- yil yanvar-mart, % da)



Davlatlar kesimida eksport hajmi


(2026- yil yanvar-mart)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami eksport	649,3	20,8
Eron	256,9	6,5 m.
Vengriya	38,6	-
Rossiya Federatsiyasi	14,0	12,3
Belgiya	29,4	-
Belarus	49,7	-
Afg'oniston	260,7	2,0 m.

Sharof Rashidov tumanining import tarkibidagi tovar va xizmatlar hajmi
(2026- yil yanvar-mart)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami import	8 236,4	96,7
Mashina va transport uskunalari	2 406,0	43,8
Mineral yoqilg'i, moylash moylariva shunga o'xshash materiallar	1,8	-
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	411,7	36,4
Sanoat mahsulotlari	738,2	125,5
Turli xil tayyor mahsulotlar	3 664,3	15,2 m.
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	562,4	103,6
Yoqilg'i tashqari nooziq-ovqat xomashyo	195,8	37,5
Boshqa mahsulotlar	256,2	-

Sharof Rashidov tumanining import tarkibidagi tovar va xizmatlar ulushi
(2026- yil yanvar-mart, % da)



Import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2026- yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan turli xil tayyor mahsulotlari importining ulushi 44,5 % ni, mashina va transport uskunalari importining ulushi 29,2 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 9,0 % ni, kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar 6,8 % ni, oziq-ovqat va tirik hayvonlar importining ulushi 5,0 % ni va yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyosi 2,4 % ni tashkil etdi.

Davlatlar kesimida import hajmi
(2026 yil yanvar-mart)

	Ming AQSH doll.	O'sish sur'ati, % da
Jami import	8 236,4	96,7
BAA	1,0	-
Hindiston	4 030,8	80,0
Turkiya	141,2	-
Xitoy Xalq Respublikasi	2 523,3	3,1 m.
Rossiya Federatsiyasi	34,8	10,5
Qozog'iston	411,7	63,1
Koreya Respublikasi	940,8	115,9
Litva	14,7	-
Belarus	138,1	91,6

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tovar - har qand vositalari ay ko‘char mulk, shu jumldan valyuta va qiymatlari , elektr, issiqlik va boshqa turdagi energiya vositalari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

Tovarlar eksporti - agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Tovarlar importi - tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Tashqi savdo aylanmasi - mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat - tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26-moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili - yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma’lum bo‘lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati - shartnoma valyutasidan qat’i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.


Xizmatlar (ishlar) eksporti - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi - norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

VIII. KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes subyektlarining ulushi, jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda (98,4 %), chakana savdo aylanmasida (59,7 %), qurilish ishlarida (80,0 %), kapital qo‘yilmalarda (44,3 %), xizmatlarda (82,5 %) va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda esa (96,1 %), ni tashkil qildi.


Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning ulushi
(2026- yil yanvar-mart oylarida, % da)



Tumanda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muxim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash, ularning faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2026- yilning yanvar-mart oylarida 220 ta yangi kichik biznes subyektlari (fermer va dexqon xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining asosiy qismi savdo (yangi tashkil etilgan subyektlarning (31,8 %), sanoat (12,3 %) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (34,1 %) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (8,6 %) soxalariga sohalariga to‘g‘ri keldi.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2026- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)**



**2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)
subyektlarining amalga oshirgan eksport-import ko'rsatkichlari
(mln AQSH doll.)**

	Viloyat eksport	Tuman eksport	Viloyat import	Tuman import
Kichik tadbirkorlik subyektlari	39,3	0,6	71,9	7,7
<i>shundan</i>				
Kichik korxonalar	31,5	0,5	33	5,1
Mikrofirmalar	7,8	0,1	38,9	2,6

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport-importdagi
ulushi, % da**




IX. MOLIYAVIY FAOLIYAT

2026- yilning 1-mart holatiga Sharof Rashidov tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarining debitorlik qarzdorliklar 139,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, 2025- yil 1-martga nisbatan 103,4 mlrd so'mga oshgan. Shuningdek, tumanda muddati o'tgan debitorlik qarzdorliklari mavjud emas.

(mlrd so'm)

	01.03.2026- yil xolatiga		01.03.2025- yil xolatiga		01.03.2025- yilga nisbatan farqi, +,-
	Jami debitor	Muddati o'tgan	Jami debitor	Muddati o'tgan	
Jizzax viloyati	5 255,8	6,7	5 148,7	3,5	107,1
Sharof Rashidov tumani	139,4	-	35,9	-	103,4


Sharof Rashidov tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarining debitorlik qarzdorliklari *(mlrd so'm)*



2026- yil 1-mart holatiga Sharof Rashidov tumanida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalarining kreditorlik qarzdorliklar 74,1 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, 2025- yil 1-martga nisbatan 67,3 mlrd so'mga kamaygan. Shuningdek, muddati o'tgan kreditorlik qarzdorliklar mavjud emas.

(mlrd so'm)

	01.03.2026- yil xolatiga		01.03.2025- yil xolatiga		01.03.2025- yilga nisbatan farqi, +,-
	Jami debitor	Muddati o'tgan	Jami kreditor	Muddati o'tgan	
Jizzax viloyati	13 009,1	23,3	11 665,5	41,2	1 343,6
Sharof Rashidov tumani	74,1	-	141,3		-67,3



X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Sharof Rashidov tumanida 2026- yilning 1-apral holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 4 285 tani tashkil qilib, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 2 940 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,6 % ni tashkil qildi.

Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanadi soni (2026- yilning 1-apral holatiga, dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	<i>birlik</i>	yakunga nisbatan % da	<i>birlik</i>	yakunga nisbatan % da
Jami	4 285	100,0	2 940	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	818	19,1	559	19,0
sanoat	683	15,9	418	14,2
qurilish	338	7,9	204	6,9
savdo	1218	28,4	814	27,7
tashish va saqlash	119	2,8	78	2,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	364	8,5	257	8,7
axborot va aloqa	44	1,0	29	1,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	41	1,0	37	1,3
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	660	15,4	544	18,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 1 218 ta (28,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 818 ta (19,1 %), sanoatda 683 ta (15,9 %) va qurilish 338 ta (7,9 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi
(birlikda)



2026- yil 1-apral holatiga 2 576 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2 205 ta, xususiy korxonalar 103 ta, oilaviy korxonalar 252 ta va boshqa tijorat korxonalar 16 tani tashkil etadi.

Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax viloyatida 2026- yil 1-apral holatiga ko'ra ro'yxatga olingan chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 346 tani tashkil qilib, Sharof Rashidov tumanida 29 tani tashkil etadi, shundan faoliyat ko'rsatayotgan 25 tani tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot

2026- yil 1-apral holatiga ko'ra Sharof Rashidov tumanida jami 387 ta oilaviy korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 252 tani tashkil etadi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida jami 14 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, 2025- yilning shu davriga nisbatan 6 ta ko'p tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)

	01.04.2025- yil		01.04.2026- yil	
	birlik	yakunga nisbatan, % da	birlik	yakunga nisbatan, % da
Jami	121	100,0	222	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22	18,2	75	33,8
sanoat	21	17,4	27	12,2
qurilish	10	8,3	3	1,4
savdo	40	33,1	70	31,5
tashish va saqlash	2	1,7	8	3,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	10,7	19	8,6
axborot va aloqa	2	1,7	3	1,3
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,8	1	0,5
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	10	8,1	16	7,1

2026- yil yanvar-mart oylarida jami 224 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan 222 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 99,1 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari *(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)*

2026- yil 1-apral holatiga ko'ra ro'yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni 3 883 tani tashkil etib, shundan 2 565 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2026- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 220 tani tashkil etadi. O'z navbatida faoliyatini tugatgan kichik biznes subyektlari soni 59 tani tashkil etmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi savdo 1 213 ta (31,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 814 ta (21,0 %), sanoat 680 ta (17,5 %) hamda qurilish 337 ta (8,7 %) sohalariga to'g'ri keladi.

Ro'yxatga olingan kichik korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan va faoliyat ko'rsatmayotganlarining ulushi

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, % da)



**Faoliyat ko'rsatayotgan jami kichik tadbirkorlik subyektlarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni
(birlikda)**

	2025- yil 1-apral holatiga		2026- yil 1-apral holatiga	
	Soni	Jamiga nisbatan ulushi, % da	Soni	Jamiga nisbatan ulushi, % da

Jami	3 038	100,0	3 501	100,0
-------------	--------------	--------------	--------------	--------------

shu jumladan:

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1318	43,4	1491	42,6
---	------	------	------	------

Sanoat	378	12,4	415	11,9
--------	-----	------	-----	------

Qurilish	168	5,5	203	5,8
----------	-----	-----	-----	-----

Savdo	695	22,9	809	23,1
-------	-----	------	-----	------

Tashish va saqlash	74	2,4	78	2,2
--------------------	----	-----	----	-----

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	217	7,1	257	7,3
--	-----	-----	-----	-----

Axborot va aloqa	18	0,6	29	0,8
------------------	----	-----	----	-----

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11	0,4	15	0,4
---	----	-----	----	-----

Boshqa sohalar	159	5,3	204	5,9
----------------	-----	-----	-----	-----

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.


XI. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning 1-apral holatiga Sharof Rashidov tumani doimiy aholi soni 256,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 1,5 ming kishiga yoki 0,6 % ga ko'paydi.

Doimiy aholi soni (2026- yil 1-apral holatiga, kishi)

	Jami aholi soni	shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar
Jizzax viloyati	1 573 239	794 110	779 129
Sharof Rashidov tumani	256 687	130 096	126 591

Sharof Rashidov tumanining doimiy aholi sonida erkak va ayollarning ulushi (2026- yil 1-apral holatiga, % da)



Shuningdek, 2026- yilning 1-apral holatiga Sharof Rashidov tumanida 50,7 % ni erkaklar va 49,3 % ni ayollar tashkil etgan.

Aholining tabiiy harakati (yanvar-mart, birlirda)

	<i>Kishi</i>		Koeffitsienti, 1000 aholiga nisbatanpromillda	
	2025- yil	2026- yil	2025- yil	2026- yil
Aholining tabiiy o‘sishi	1 309	1 289	21,2	20,4
Tug‘ilganlar	1 535	1 498	24,9	23,7
Vafot etganlar	226	209	3,7	3,3
Tuzilgan nikohlar	266	234	4,3	3,7
Nikohdan ajralishlar	54	70	0,9	1,1
Ko‘chib kelganlar	690	703	11,2	11,1
Ko‘chib ketganlar	368	450	6,0	7,1


Tug‘ilish darajasi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 1 498 kishini tashkil qildi va 2025- yilning shu davriga (1 535 kishi) nisbatan 37 taga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 23,7 promilleni tashkil qildi va 2025- yilning shu davriga (24,9 promille) nisbatan 1,2 promillega kamaydi.

O‘lim darajasi. 2026- yilning yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni 209 kishini tashkil qildi va 2025- yilning shu davriga (226 kishi) nisbatan 17 taga o‘limlar soni kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 3,3 promilleni tashkil qildi va 2025- yil yanvar-martga (3,7 promille) nisbatan 0,4 promillega kamaydi.

Tabiiy o‘shish. 2026- yilning yanvar-mart oylariga tabiiy o‘shish 1 289 kishini tashkil qildi va 2025- yilning shu davri (1 309 kishi)ga nisbatan 20 kishiga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.


Nikohlar va ajralishlar. 2026- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlarida 234 ta nikohlar va 70 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi, ming aholiga nisbatan 3,7 promilleni tashkil qildi (2025- yilning tegishli davrida 4,3 ga) va 1,1 ga ajralishlar (2025- yilning tegishli davrida 0,9 ga) to‘g‘ri keladi.

Aholining tabiiy harakati (yanvar-mart oylarida kishi, birlikda)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Sharof Rashidov tumani bo'yicha ko'chib kelganlar soni 703 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 450 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i 253 kishiga (2025- yilning shu davrida qoldig'i 322 kishi) teng bo'ldi.

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida kishi, birlikda)



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Tuman aholisi – tuman hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan tumanlar, tumanchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2026- yil yanvar-mart oylarida Sharof Rashidov tumanida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 897,8 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.


O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi	
	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart
Jizzax viloyati	4 382,6	5 142,8
Sharof Rashidov tumani	3 572,4	3 897,8

O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



O‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	Mart	Yanvar-mart
Jami	3 999,4	3 897,8
shu jumladan:		
Sanoat	9 939,0	8 409,6
Savdo	2 612,1	2 600,1
Ta‘lim	3 986,4	3 949,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	3 303,1	3 175,7
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	3 293,7	3 249,6
Boshqa faoliyat turlari	6 435,9	5 866,3

Tuman(shahar)lar kesimida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	Mart	Yanvar-mart
Jizzax viloyati	5 470,6	5 142,8
Jizzax sh.	7 701,1	6 906,7
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	4 362,1	4 271,8
Baxmal	4 110,1	4 050,7
G‘allaorol	5 549,4	5 611,2
Sharof Rashidov	3 999,4	3 897,8
Do‘stlik	4 039,1	3 827,3
Zomin	4 319,6	4 153,8
Zarbdor	4 342,9	4 196,1
Mirzacho‘l	3 815,2	3 648,1
Zafarobod	4 438,8	4 369,2
Paxtakor	4 598,1	4 352,7
Forish	3 742,6	3 641,2
Yangiobod	3 944,3	3 738,8

Jizzax viloyatida o‘rtacha oylik ish haqi miqdori Sharof Rashidov tumanida 3 897,8 ming so‘m (viloyatidagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 75,8 Forish tumanida 3 641,2 ming so‘mni (70,8 %), Paxtakor tumanida 4 352,7 ming so‘mni (84,6 %) va Zafarobod tumanida 4 369,2 ming so‘mni (85,0 %) tashkil etgan.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti – korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.

**SHAROF RASHIDOV TUMANINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2026- yil yanvar-mart**

Nashrga mas'ul:
Sharof Rashidov tumani statistika bo'limi
tel. (72) 211-53-47

Buyurtma raqami № 3 2026-y. Tiraj 9 nusxa

Sharof Rashidov tumani statistika bo'limi
Sharof Rashidov tumani, Uchtepa dahasi, Yangiobod mahallasi Mustaqillik ko'chasi, 15-uy.

